

## **FALSAFIY QONUNLAR VA LEKSEMALAR LARNING SHAKLANISHI**

**O. Bozorov,**  
Qo'qon DPI, f.f.d.,

**Sh. Maxsitaliyeva**  
Qo'qon DPI, Magistrant

### **Аннотация**

Qonun butun olam (tabiat, jamiyat, ong)ning in'ikos shakli, dunyoning mavjudligi, o'zgarishi, taraqqiyotini belgilab beruvchi, zaruriy, turg'un munosabatlarga asoslangan, muayyan sabab asosida muqarrar yuz beradigan umumiy hodisadir. Falsafiy qonunlar umumiy, universal mazmun belgilari barcha xususiy fanlar, shu jumladan, tilshunoslikning lisoniy qonunlarining aniqlanishi, belgilanishiga asos, metodologiya bo'lib xizmat qiladi.

Qarama-qarshiliklar kurashi va birligi tabiat, jamiyat, ong narsa (hodisa)lari, munosabatlarining qay holatda mavjud bo'lib turishi, narsa (hodisa)ning ichki tuzilishi va boshqa narsa (hodisa)larga munosabatlari ziddiyatiga asoslanishi, ziddiyatning inkor qilish va taqozo etish xususiyatlari, ziddiyatlarning turlari, zid tomonlarning bir-biriga ta'siri, kurashi, buning yangi narsa (hodisa)lar paydo bo'lishining asosi va imkoniyati ekanligini ko'rsatadi. Har qanday tadqiqotchi, xususan, tilshunos o'z predmetini tashkil etuvchi qarama-qarshilik, ziddiyatlarni ko'ra olishi va falsafaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni mazmunining universal, umumiy belgilari bilan tanish bo'lishi va unga asoslanishi lozim. Til qurilishing asosi bo'lgan lisoniy oppozitsiyalar tizimini falsafaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni mazmuni, uning belgilari asosidagina haqiqatga mos ravishda va to'liq aniqlash mumkin. Til birliklari, nutq hodisalarining qarama-qarshiliklar birligidan iborat tizim ekanligini aniqlash lingvistik nazariyaning asosiy maqsadidir.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi qonuni butun olam narsa (hodisa)lari, munosabatlarining shakllanish asosini, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga, sifat o'zgarishlarining miqdor o'zgarishlariga o'tishi, bu jarayonlarning tarkibiy qismlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Bu qonun asosida til birliklari va tizimining qanday vujudga kelganligi aniqlanadi.

Inkorni inkor qonuni miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi qonuniga asoslangan holda bir narsa (hodisa)ning keyingi (yangi) narsa (hodisa) tomonidan inkor qilinganligi, uning zidiga (boshqa narsaga) o'tilganligini, narsadan narsa hosil bo'lishining ko'p bosqichlilagini o'zida aks ettiradi. Bu qonun asosida til birliklarining diaxron shakllanish tizimi aniqlanadi. Ushbu qonunning namoyon bo'lishi til birliklarining etimologiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi va inkorni inkor qonunlari bir-biriga singib ketgan, hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchi o'zaro uзви bog'liq qonunlar bo'lib, ular bir dialektik jarayonning turli qirralaridir. Xususan, til birliklarining shakllanishi, shakllangan birliklarning opozitsiyalar hosil qilishi har uch qonunning hamkorligidagi faoliyati mahsulidir.

So'zlar yoki leksemalar shakllanishida uning ma'no (semema)sidagi yetakchi belgi (sema) tadrijiy miqdor o'zgarishlariga uchraydi va har bir o'zgarish bosqichida yangi sifat yoki yangi leksema vujudga keladi. Masalan, *yelvizak* so'zi ma'nosida "havo oqimi" belgi (sema) mavjud. Ana shu leksik belgi miqdorining bosqichli oshib borishi natijasida yangi so'zlar shakllana boradi: *yelvizak* → > ↔shabada→ > ↔shamol→ > ↔bo'ron→ > ↔to'fon. Leksik belgi yoki semadagi miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi qonuni yetakchiligi va inkorni inkor, qarama-

qarshiliklar birligi va kurashi qonunlari uyg'un ( hamkorli)gida vujudga kelgan yangi leksemalar barcha so'z turkumlarida uchrashi mumkin. Ot leksemalarda: oqmas suv joyi hajmi belgi (sema)si miqdorning oshib borishi asosida: hovuz → > ↔ suv ombori → > ↔ ko'l → > ↔ dengiz → → > ↔ okean; oqar suv hajmi semasining miqdor o'zgarishlari asosida: jo'yak → > ↔ ariq → > ↔ kanal → > ↔ soy → > ↔ daryo; balandlik semasi miqdorining oshib borishi asosida: do'ng → > ↔ tepalik → > ↔ adir → > ↔ tog'; yosh semasi miqdorining oshib borishi asosida: chaqaloq → > ↔ go'dak → > ↔ bola → > ↔ o'spirin → > ↔ yigit → > ↔ chol; ota/ona avlod belgisining kamayib borishi asosida: nabira → > ↔ chevara → > ↔ evara → > ↔ duvara → > ↔ zuvara → > ↔ begona; mol-mulk miqdori belgisining oshib yoki kamayib borishi asosida: boy → > ↔ o'rtahol → > ↔ kambag'al, kambag'al → > ↔ o'rtahol → > ↔ boy; uch oy muddat belgisining davriy oshib borishi asosida qish → > ↔ bahor → > ↔ yoz → > ↔ kuz; sifat leksemalarda: baholash birligi (ball) belgisi miqdorining oshib borishi asosida: qoniqarsiz → > ↔ qoniqarli → > ↔ yaxshi → > ↔ a'lo; namak (tuz) belgi miqdorining oshib borishi asosida: chuchmal → > ↔ rosa → > ↔ sho'r; suyak begisi miqdorining oshib borishi asosida: laxm → > ↔ kamsuyak → > ↔ sersuyak; aqlilik darajasi belgisining oshib borishi asosida: nodon → > ↔ esli → > ↔ dono; suyuqlik bilan bog'liq idish hajmi miqdorining oshib borishi asosida: bo'sh → > ↔ yarim → > ↔ salkam → > ↔ to'la; bo'y belgisi miqdorining oshib borishi asosida: pakana → > ↔ o'rtabo'y → > ↔ novcha → > ↔ daroz kabi; son turkumi leksemalarida: birliklar soni belgisining oshib borishi asosida: bir → > ↔ ikki → > ↔ uch → > ↔ to'rt; o'nli birliklar miqdorining oshib borishi asosida: o'n → > ↔ yigirma → > ↔ o'ttiz → > ↔ qirq; fe'l leksemalarda: va'da kuchi, ishonchliligi belgisining oshib borishi asosida: va'dalashmoq → > ↔ ahdashmoq → > ↔ ahdu paymon qilmoq; salbiy ruhiy holat kuchi belgisining oshib borishi asosida: asabiyashmoq → > ↔ ranjimoq → > ↔ xafa bo'lmoq → > ↔ xunob bo'lmoq → > ↔ bo'g'ilmoq → > ↔ jig'ibiyron bo'lmoq → > ↔ g'azablanmoq → > ↔ qahrlanmoq; noma'lum, odatdan tashqari narsa (hodisa)ga duch kelgandagi hisning kuchayib borishi asosida: ajablanmoq → > ↔ hayron bo'lmoq → > ↔ hayratlanmoq → > ↔ hang-mang bo'lmoq; uyqu kuchi belgisining oshib borishi asosida: uyqusi kelmoq → > ↔ mudramoq → > ↔ uxlamoq → > ↔ qotmoq kabi; ravish leksemalarda: payt yo'naliqidagi vaqt miqdorining bosqichlanib oshib borishi belgisi bo'yicha: kecha → > ↔ bugun → > ↔ ertaga; vaqt miqdori belgisining kamayib borishi asosida: doimo → > ↔ ba'zan → > ↔ hech qachon; ovqat miqdori belgisining oshib borishi asosida: och → > ↔ ochin-to'qin → > ↔ to'q kabi. Boshqa so'z turkumlariga, xususan, olmosh, modal so'z, undov so'z, taqlid so'z, ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaga ham miqdor semalarining oshib yoki kamayib borishi asosida shakllanish xos. Tilning gap va matn birliklari shakllanishida sintaktik belgi miqdori o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi o'ziga xos yo'sinlarda uchraydi.

Til birliklari tizimini qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi, inkorni inkor qonunlari asosida o'rganish nazariy tilshunoslikning muhammosidir.

## **Adabiyotlar**

1. Бозоров О., Бозоров О.О. Тил ўрганишда фалсафий қонунлар методологияси // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. IV. – Тошкент: 2008. – Б.61-66.
2. Бозоров О. Тил қонуларини ўрганиш методологияси ва ўзбек тилида даражаланиш қонуни // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, филология фанлари доктори, профессор Абдулҳамид Нурмонов

- таваллудининг 70 йиллигига бағишлиланган Республика илмий-амалий анжумани материаллари). – Андижон, “Andijon nashriyot-matbaa” МЧЖ, 2012. – Б. 184-190.
3. Раҳимов И., Ўтамуродов А. Фанларнинг фалсафий масалалари (Фан фалсафаси). Ўқув кўлланма. Тошкент: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети босмахонаси, 2005, 211 б.
  4. Философский энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1983. – 839 с.

